

## NAMANGAN VILOYATIDA DAVLAT, UY MUZEYLARINING VUJUDGA KELISHI VA TURIZM RIVOJIDAGI O'RNINI

Nazarov Zafarjon,  
Namangan shahar "Ziyokor Academy" o'quv markazi tarix fani o'qituvchisi

*Annotatsiya. Maqolada Namangan viloyati hududida davlat va uy muzeylarining turizm rivojidadagi o'rnini haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, viloyatdagi sayyohlikning ommalashib borayotgan tarmoqlari borasida, Axsikent ochiq osmon muzeyi, Sulton Uvays Qaroniy, Hazrati Bob ziyoratgohi va ularning qoshidagi muzeylar haqida fikr bildirilgan.*

*Tayanch so'zlar: muzey, turizm, Axsikent, Sulton Uvays Qaroniy, Hazrati Bob madaniy meros, iqtisodiyot, O'zbekmuzey.*

## ПОЯВЛЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ МУЗЕЕВ И ДОМОВ-МУЗЕЕВ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ МЕСТО В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА

Назаров Зафаржон,  
Учитель истории учебного центра «Зийкор Академий» города Намангана

*Аннотация. В статье рассматривается вопрос о месте государственных и домов-музеев в развитии туризма. Также развивается мысль о распространении сфер туризма, о музее под открытым небом Ахсикент, мест для паломничества Султана Увайсий Кароний, Хазрата Боб и музеев при них.*

*Опорные слова: музей, туризм, Ахсикент, Султан Увайс Кароний, культурное наследие Хазрати Боб, экономика, Узбекмузей.*

## THE ROLE OF STATE, HOUSE MUSEUMS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN NAMANGAN REGION

Nazarov Zafarjon,  
History teacher at «Ziyokor Academy» educational center in Namangan city

*Abstract. The article talks about the role of state and home museums in the development of tourism in Namangan region. Also, regarding the growing popularity of tourism in the region, an opinion was expressed about the Ahsikent open-air museum, Sultan Uvais Qarani, Hazrat Bab shrines and their museums.*

*Key words: museum, tourism, Ahsikent, Sultan Uvais Qarani, Hazrat Bob cultural heritage, economy, Uzbek museum.*

**Kirish.** Qachonlardir gullab-yashnagan, insoniyat yutug'laridan darak beradigan arxeologik maskanlar dunyoning turli mintaqalarida uchraydi. Bunday hududlardagi yodgorliklarni o'rganish, asrash, ulardan foydalanish, ommalashtirish va turizm maskanlariga aylantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

“Turizm — iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda” [10], - degan edi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev.

Jahonda har 10-ishchi o'rin turizm bilan bog'liq va u asosiy daromad olib keluvchi sohalar ichida 3-o'rinda turadi. Jahon turizm tashkilotining hisobotiga ko'ra, dunyo turizmi pandemiya tufayli 1 trln. AQSh dollari atrofida zarar ko'rdi. Bu sohada 100 milliondan ortiq aholi band edi va ular ishsiz bo'lib qolgan (2019-2021 yillar mobaynida) [1]. Turizm o'z o'rniga qaytib kelishi uchun ma'lum muddat talab etiladi. Hozirga kelib turizm sanoati yanada jadal rivojlanib bormoqda.

Millatimizning o'zligini anglashda hamda milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Muzeylar yuz yillar mobaynida ta'lim-tarbiya va ilmiy vazifalarga ega bo'lgan.

Bugungi zamonaviy dunyoda muzeylar tizimi taraqqiyotiga ob'ektiv ehtiyojlar ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlardan AQSh, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Gresiya, Misr va boshqa bir qator mamlakatlar eng taraqqiy etgan muzeylar tizimiga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Prezident Shavkat Mirziyoev 2022-yil 26 aprel kuni turizm xizmatlari ko'lamini kengaytirish va infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha

yig'ilishida: Dunyoda pandemiya paytida o'rnatilgan cheklovlar birin-ketin kamayayotgani tufayli turizm industriyasi tiklana boshlayapti. 2022 yil birinchi chorakda yurtimizga xorijdan 610 ming nafar yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 baravardan ziyod turistlar kelganini ta'kidladi. ... shuningdek Muzeylar faoliyatini samarali tashkil etish ham turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, respublika bo'yicha barcha muzeylar eksponatlarini to'liq xatlovdan o'tkazib, ularning elektron bazasini yaratish, muzeylar rahbar va xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Shuningdek aholining uzoqdagi muzeylarga borish imkoniyati yo'qligi uchun, "San'atni xalqqa yaqinlashtirish" dasturi doirasida bir qator ishlar tashkil qilish kerakligini ta'kidladi[12].

Tarixiy xotirani shakllantirish, uni rivojlantirish, shu bilan birga hozirgi avlod ruhida milliy g'urur tuyg'ularini paydo qilish ishida barcha madaniy-ma'rifiy muassasalar qatorida muzeylar ham o'ziga yarasha hissasini qo'shmoqda[5].

Muzeylarning xalqaro miqyosda rivojlanib borishi bilan ularning ta'sir doirasi kengayib, turistlar tashrifini ortib borishiga yordam bermoqda. Shuningdek, milliy madaniyatlarning o'zaro boyishi va xalqlar o'rtasida hamfikrlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda.

Muzeylar orqali o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash, sezish, o'rganish mumkin. Shu boisdan ham, mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu madaniyat maskanlari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina bo'lib, u yillar davomida boyitilib, tarixdan meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan san'at asarlari saralanib, muzeylardan joy olib, umuminsoniy boylikka aylantirilmoqda[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni muzeylar maqomini yuksaltirishga qaratilgani bilan qimmatlidir. Unda, O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yana takomillashtirish, ularni xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnini yuksaltirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab-asrash lozimligi ta'kidlandi[2].

Muzeylar faoliyatini muvofiqashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998 yilda "O'zbekmuzey" Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi va u 1999 yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi.

Yoshlar ma'naviyatida muzeylarning ahamiyati hisobga olinib, 2021 yil Vazirlar Mahkamasining qarori bilan haftaning seshanba va juma kunlari bolalar va ularning ota-onalariga bepul xizmat ko'rsatish, har yili 2–8 sentabr kunlari "Muzeylar haftaligi"ni tashkil etish belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Madaniyat va sport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, mazkur sohada O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodiyotini yanada rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini tubdan yuksaltirish, aholi keng qatlamlari orasida ma'naviy-axloqiy kamolot va sog'lom turmush tarziga intilishni kuchaytirish maqsadida faoliyatni o'rganib chiqish natijalarini hisobga olib, "O'zbekmuzey" jamg'armasi tugatilib, mazkur tashkilotning funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga topshirildi. Vazirlikka davlatlararo va xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, mamlakatimizning madaniy merosini, mamlakatimiz ijodiy jamoalari va mualliflari asarlarini, jumladan, konferensiyalar va ko'rgazmalar, madaniy tadbirlar va anjumanlar o'tkazish yo'li bilan chet ellarda keng targ'ib qilish, madaniyat sohasiga xorijiy investitsiyalar va grantlar jalb etish, shuningdek, madaniyat sohasiga oid ommaviy adabiyotlarni chop etish, video va kino materiallar tayyorlash vazifalari etib belgilandi.

Muzeylar katta ilmiy tadqiqiy va tarbiyaviy ishlarni olib boradi: to'plamlarni butlaydi va tadqiq etadi; ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi, muzey ashyolarini saqlash va ta'mirlash tartibini yaratadi, monografiya, katalog, yo'l-ko'rsatkichlar nashr etadi; zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tashviqotlar olib boradi. Tomoshabinlar bilan ishlashning eng muhim shakli ekskursiyadir. Siyosiy, ilmiy, madaniy, iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishda muzeylarning ahamiyati beqiyosdir. Muzeylarning o'tmishdoshlari tabiat va ijtimoiy hayotdan olingan asl buyumlarni xo'jalik maqsadlarida va moddiy boylik sifatida emas, balki memorial guvohnoma va estetik qimmatli asl narsalar sifatida saqlana boshlagan davrda yuzaga kelgan.

Bugungi kunda kishilar ongida tarixiy tafakkurning shakllantirishda muzeylarning o'zining katta. Shularni inobatga olgan holda, mamlakatimizning barcha viloyatlari qatori Namangan viloyatida ham samarali ishlar amalga oshirildi. Xususan viloyatdagi yetakchi "Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi" 1986 yilda qurilish ishlari boshlangan, 1987 yil qurib bitkazilgan. 1988 yil 22 aprelda Namangan shahrining Nodim Namongoniy ko'chasida qad rostlagan yangi binoning ochilish marosimi o'tkazildi[6].

Istiqloq yillarida "Namangan viloyati o'lkashunoslik muzeyi" xodimlarining jonbozliklari va samarali mehnatlari natijasida muzey 1998 yilda birinchi toifali muzeylar qatoriga kirdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrda "2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks choratadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" 975-sonli qaroriga asosan "Namangan viloyati o'lkashunoslik muzeyi" "Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi" nomiga o'zgartirildi[4]. Bugungi kunda Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida tarix, san'at, adabiyot, g'azna, ta'biat, madaniyat, ma'naviyat, xotira va qadrlash bo'limlari mavjud. Shuningdek, 2-3 qavat ko'rgazma zallari bo'lib, unda Namangan viloyati tarixi, tabiati, adabiyoti, san'atini aks ettiruvchi eksponatlar asosida ekspozitsiyalar tashkil etilgan. Muzey bo'ylab aholi, yoshlar, respublika miqiyosidagi ommaviy tabirlarda esa (Masalan; "Namangan xalqaro gullar festivali", "Navro'z", "Silk Granat"(ipak matolar ko'rgazmasi) va b.) horijiy mehmonlar uchun ekskursiyalar tashkil etilmoqda.

"Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi"dan tashqari viloyatdagi boshqa muzeylarning rivojlantirishga ham e'tibor qaratilmoqda, jumladan, 1993 yil 28 avgustda Pop tumanida arxeologiya muzeyi barpo qilindi. O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi hay'atining 1996 yil 3 maydagi qaroriga asosan Mingbuloq, Uychi, Chortoq tumanlaridagi va Kosonsoy shahridagi muzeylarga «Xalq muzeyi» unvoni berildi[8:1]. Shuningdek, Mingbuloq tumani Qolqandaryo MFYda joylashgan 1907 yilda Muslim ona homiyligida barpo etilgan xalq amaliy san'atining noyob namunasi Sirli masjid 2021 yilda Madaniyat vazirligi ko'rsatmasiga muvofiq restavratsiya rekonstruksiya ishlari olib borilib muzeyga aylantirildi[11]. Chortoq tumanidagi Abu Ali ibn Sino jamoat salomatligi texnikumida "Milliy qadriyatlar muzeyi" chorak asrdirki, foliyati davomida tashkil etilgan "Tarixiy qo'lyozmalar", "Numizmatika", "Milliy liboslar", "Milliy hunarmandchilik" bo'limlarida 1700 dan ortiq ekponatlar saqlanmoqda. Bundan tashqari xalqimizning tarixiy, ilmiy-madaniy va ma'naviy qadriyatlarini to'plovchi, saqlovchi va namoyish etuvchi tumandagi shunday maskanlardan yana biri Koroskon qishlog'ida tadbirkor Jamoliddin Nizomov tomonidan "Koroskon orom savdo invest" mas'uliyati cheklangan jamiyat qoshida tashkil etilgan muzeyda milliy an'ana va qadriyatlar, matbuot va bo'limlari mavjud. Bosma nashrlar bo'limida 2000 ga yaqin turli kitoblar, jahon va o'zbek adabiyoti durdonalaridan tortib, ko'plab sohalarga oid ma'lumotlarni o'zida jamlagan ensiklopediyalargacha saqlanmoqda"[7]. Bu yerdagi noyob ekponatlar, osori-atiqalar ko'pchilik tashrif buyuruvchilarda qiziqish uyg'otmoqda. Chust tumanidagi "Mavlono Lutfulloh" nomidagi istirohat bog'idagi muzey tashkil etildi. Ushbu tadbirlar ham ma'naviy-milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi salmoqli ishlardan hisoblanadi.

2020-yil respublika turizm mashrutiga kiritish maqsadida, Namangan viloyatida 25 ta madaniy meros obektini, xususan, Chortoq tumanidagi "Sulton Uvays Qaroniy" ziyoratgohi (uning qoshidagi muzeyi), To'raqo'rg'on tumanidagi "Axsikent ochiq osmon muzeyi", Chust tumanidagi "Bibiona" ziyoratgohi, Pop tumanidagi "Hazrati Bob" ziyoratgohida qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib, bu maqsad uchun budjet mablag'lari hisobidan 26,8 mlrd.so'm sarflandi[9].

Muzey uylari xayoliy va tarixiy qahramonlar muzeylari turi yoki ularning prototiplari bilan chambarchas bog'liq. Butun dunyoda bo'lgani kabi mashhur insonlarning, davlat arbobi, san'atkor va ijodkorlarning uy-muzeylari mamlakatimizda ham faoliyat yuritadi. Uy-muzey ochish mashhurlarning oila a'zolari uchun imijgina emas, ulardan qolgan buyum va ashyolarni asrab-avaylash, kelgusi avlod uchun tarixiy darsxona. Shu bilan birga o'zining o'zbek adabiyoti va madaniyatiga qo'shgan bemisl hissasi bilan ulug' kishilar safida e'zozlanishga, o'rganilishga mushtoq ijodkoru san'atkorlarimizni nomini abadiylashtirishda munday muzeylar muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun mamlakat ravnaqiga xissa qo'shgan tarixiy siymolarning uy-muzeylari ochilsa, har biri asrlar uchun mangu saboq bo'ladi. Yoki viloyatda yashab hassos ijod qilgan ijodkorlarimizdan qolgan qo'lyozmalari, kitoblari, buyumlari faqat oila a'zolari uchungina qadrlil mulk sifatida bir burchakda qolib ketmasligi kerak. Bir odamning yoki oilaning mulki sifatida qaralgan boyluk bir kun izsiz yo'qolishi tayin. Zotan ularning har bir ashyosi millatning mulki, millatning boyligidir. Ular davlat tomonidan muhofaza qilinishi shart[12]. Bu borada viloyatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Namanganlik

atoqli shoir, o'z davrining iste'dodli mudar-risi, mutafakkiri bo'lgan Sulaymon Ulug'xo'ja o'g'li Nodim Naman-go-niy-ning 1992 yilda Namangan tumanidagi «Zarbdor» jamoa xo'jaligi hudu-dida uy-muzeyi tashkil qilindi[8:1]. 1995 yilda To'raqo'rg'on shahrida Ibrat uy-muzeyi qurildi. Namangan shahri markazidagi "Sardoba" dahasidagi Namanganga bundan yuz ellik yil avval texnologiyani, ilk fotoapparat va boshqa ashyolarni olib kelgan buyuk ma'rifatparvar, elparvar Qodirxo'ja Eshon hovlisi hozirda «Oltin meros» fondi joylashgan maskan uy-muzeyiga aylantirilib tarixiy va madaniy yodgorliklar ro'yxatidan o'rin oldi. Davlatimiz rahbarining 2022 yil 10 fevralida qabul qilingan «O'tashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarori munosabati bilan Namangan shahridagi "Amir Temur" MFYda shoirning uy-muzeyi va mahalla kutubxonasi bunyod etilda. Bu majmua serqirra iste'dod sohibi Usmon Nosir, navqiron yoshida mustabid tuzum qurboniga aylangan isyonkor qalbning ikkinchi umrini boshlab berdi, desak to'g'ri bo'ladi. Yana bunday uy-muzeylaridan viloyat miqiyosida ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Bu maskanlarga tashrif buyuruvchi maktab o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari, mamlakatimiz hamda xorijdagi san'at ixlosmandlarida kundan-kunga qiziqish ortib bormoqda.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi xisobotiga ko'ra, 2023-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizdagi muzeylarga tashriflar 6500,9 ming kishini tashkil etib, ulardan o'quvchi va talabalar – 51,9 % tashkil etgan. Yillar kesimida tashrif buyuruvchilar soni:

	2020- yilda
– 1515,8 ming kishi	2021- yilda – 5100,0
ming kishi	2022- yilda – 6500,9
ming kishi[14].	

Hozirgi kunda muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar qilinishi ko'zda tutilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 31 maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3022-son qarori qabul qilingan[3] bo'lib, unga ko'ra, 2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur doirasida Namangan viloyati bir qator davlat muzeylarining faoliyati tugatilib, yangidan tashkil etildi. Bundan ko'zlangan maqsad ishlab chiqiladigan yangi konsepsiyalar, muzey ashyolarini ishonchli saqlash, tashrif buyuruvchilar, hususan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, arxitektura-rejalashtirish, interer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratgan holda, har bir muzey binosining eskiz loyihasini muzeyning yo'nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda monitoring nazorat ishlari olib borilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi xisobotiga ko'ra, Respublikaga 2022 yil yanvar-centabr oylarida jami 3587,1 ming nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan[15].

Yaqin yillargacha sayyohlar uchun taklif etiladigan yo'nalishlar asosan Namangan viloyatidagi tarixiy arxeologik obektlar va muzeylar bilan cheklanar edi. Bugungi kunga kelib, viloyatda turizmning madaniy meros turizmi (siz sayohat qilgan joyning madaniy merosiga yo'naltirilgan. Bu qadimiy madaniy qiziqishlarga ega bo'lgan tarixiy joylarni ziyorat qilishni o'z ichiga oladi. Maqsad - o'tmishni yaxshi baholay olish), ziyorat turizm (bu insonning e'tiqodi uchun muhim bo'lgan muqaddas joyga yoki ziyoratgohga uzoq safar, shuningdek, bunda diniy ahamiyatga ega bo'lgan hududlar, inshootlar va binolarga sayohat qilinadi. Barcha dinlarning ko'plab e'tiqodchilari diniy turizmga qatnashadilar. Chunki, bu ularning iymon va e'tiqodlarini mustahkamlashga yordam beradi). Tibbiy turizm (odamlar tibbiy muolajalar uchun sayohat qilishganda, ko'pgina mamlakatlarda operatsiyalar va protseduralar qimmatga tushadi yoki uzoq kutish ro'yxatiga qo'shilishni talab qiladi. Shuning uchun ushbu mamlakatlar aholisi ushbu protseduralarni o'zi yashab turgan hududdan boshqa viloyatda yoki chet elda amalga oshirish uchun sayohat qilishadi), sog'lomlashtirish turizm (ushbu turdagi turizm tana davolash, vazn yo'qotish dasturlari, go'zallik muolajalari va boshqalarni o'z ichiga oladi), agroturizm (odatda fermer xo'jaliklarida amalga oshiriladigan ta'til uslubi. Bu tashrif davomida fermer xo'jaligi vazifalarini bajarishda yordam berish imkoniyatini o'z ichiga olishi mumkin) kabi sayyohlikning yangi tarmoqlari keng rivoj topmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kundagi dunyodagi globallashtirish jarayonida turizimni o'rni beqiyos. Dunyo iqtisodiyotida ro'y berayotgan beqaror jarayonlar xar-bir mamlakatni qo'shimcha manbaalar topishga undamoqda. Shu bilan birga tarixiy-madaniy yodgorliklarning tarkibi

va ahamiyati orqali belgilanuvchi omillarni kapital deb xisoblash mumkin. Ochiq osmon ostidagi qadimgi me'moriy inshootlar, muzeylar, uy-muzeylari, O'zbekistonda turizm rivojlanishi uchun qo'lay maskanlar hisoblanadi. Aynan shunday maskanlarda tarixiy turizmni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Undan tashqari mutaxassislarni e'tiborlarini jalb qilishi mumkin bo'lgan boshqa maskanlar ham mavjud, maaslan, Namangan viloyatidagi arxeologik maskanlar, shuningdek, dam olish, davolash va sport maskanlari juda ko'p. Binobarin, sport turizmining tog' turizmi, alpinizm, tog'-changi sportining barcha ko'rinishlari, delpalnerizm, tog' daryolarni bo'ylab qayiklarda suzish kabi aynan keng tarqalmagan turlarni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shularni inobatga olib keyingi yillarda viloyatda istiqbolli rejalar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

Butunjahon turizm tashkiloti – YuNVTO ning rasmiy sayti ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi qarori//Xalq so'zi, 1998 yil 12 yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» 3022-son qarori//Xalq so'zi, 2017 yil 31 may.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrda «2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida» 975-sonli Qarori (<https://lex/docs/3451889>).

Baxriddinov O. Muzeylar-tariximiz guvohi // Namangan haqiqati. 2004 yil 10 mart.

Mirzaaliev E. Namangan viloyat o'lkani o'rganish muzeyi: kecha va bugun. –

Farg'ona: Farg'ona.2010.B. 22.

Moziydan so'zlovchi bebaho xazina//Xalq so'zi, 2023 yil 18 may.

Namangan viloyat hokimligi madaniyat va sport ishlari boshqarmasining 1991-2007 yillar uchun ma'lumotlar to'plamidan.– B.1-2.

Namanganning yuksalayotgan turizm salohiyati iqtisod rivojida ham muhim o'rinni egallaydi // Yangi O'zbekiston, 2021 yil 12 fevral.

[https://uza.uz/uz/posts/turizmni yanada rivojlantirish masalalari 03-10-2017.](https://uza.uz/uz/posts/turizmni_yanada_rivojlantirish_masalalari_03-10-2017)

<https://t.me/namtourism> Mingbuloqdagi noyob me'moriy obida qayta tiklanmoqda 28-10-2021.

[www.president.uz](http://www.president.uz).

[https://\(uzhurriyat.uz\)](https://(uzhurriyat.uz))Tarixning oqarmagan sochlari yoki uy-muzey ochishning muzday tashvishlari – 23-06-2021.

<https://stat.uz/uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

<https://stat.uz/uz>. O'zbekistondagi muzeylarga tashrif buyuruvchilar ortib bormoqda.